“O‘zkimyosanoat” AJ da “Ochiq eshiklar kuni”

// 05.12.2023
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-da-ochiq-eshiklar-kuni

Bugun “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan tadbirda Jamiyat boshqaruv xodimlari, Agentlik mas’ul xodimi va OAV vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirni “O‘zkimyosanoat” AJ Boshqaruv raisining o‘rinbosari Akobir To‘xtayev kirish so‘zi bilan ochib, o‘tgan davr mobaynida tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qilingan ishlar, preventiv choralarni qo‘llash va xodimlarlarning sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini reyting baholash tizimida “O‘zkimyosanoat” AJ 89 ball bilan “yaxshi” deya e‘tirof etilgani haqida alohida to‘xtaldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas’ul xodimi Oybek Abdug‘aniyev so‘zga chiqib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlari, Agentlik bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari hamda tashkilotda korrupsiyaning oldini olish va ochiqligini ta’minlash borasidagi olib borilayotgan ijobiy ishlarni e’tirof etdi.

Shuningdek, tadbir davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi tomonidan komplayens nazorat faoliyatining erishilgan ijobiy natijalari hamda Matbuot xizmati tomonidan tashkilot faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan qilingan taqdimotlar orqali ishtirokchilarga atroflicha ma’lumotlar berildi.

Tadbir so‘nggida mehmonlarga “O‘zkimyosanoat” AJ hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamkorligida suratga olingan “Mening qahramonim” nomli qisqa metrajli film namoyish etildi.